

**YANGI AVLOD MULOQOT PLATFORMASI: “FRIENDS CHAT”
SAYTI MISOLIDA FOYDALANUVCHI FAOLLIGINI O‘RGANISH**

Ismoil Sapayev Anvar o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Urganch filiali Telekommunikatsiya texnologiyalari fakulteti 60610400 –

Dasturiy injiniring ta'lim yo'nalishi 942-22-guruhi talabasi

Email adress (sapayevismoil09@gmail.com) telefon raqam (+998904382788)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek yoshlarining raqamli muloqotga kirishishdagi ehtiyoji, ijtimoiy platformalarga bo'lgan qiziqishi va aynan “Friends Chat” kabi mahalliy saytlar orqali ularning do'stlik, muloqot va o'zini erkin ifoda etish darajasi tahlil qilinadi. Ushbu platformaning yaratish jarayoni, funksiyalari va foydalanuvchi tajribasi asosida zamonaviy raqamli muloqot muhitining afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli muloqot, Friends Chat, foydalanuvchi faolligi, ijtimoiy tarmoq, muloqot psixologiyasi.

Kirish: Bugungi kunda raqamli texnologiyalar orqali muloqot qilish zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida turli chat platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali fikr almashish, yangi do'stlar orttirish, ijtimoiy faol bo'lish ehtiyoji kuchaymoqda. Ushbu ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan o'zbekcha “Friends Chat” sayti — yosh dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan mahalliy platforma bo'lib, foydalanuvchilarni o'zaro bog'lashda samarali xizmat qilmoqda

Asosiy qism: “Friends Chat” web-sayti foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- O'z profillarini yaratish;
- Do'stlik so'rovlarini yuborish va qabul qilish;

- Guruhlar yaratib, jamoaviy suhbatlarda ishtirok etish;
- Maxfiy va ochiq xabarlar almashish;
- Profilga doir shaxsiy ma'lumotlarni nazorat qilish.

Sayt foydalanuvchilarning faoliyatiga asoslangan tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, har bir foydalanuvchining muloqotga tayyorligi, do'st orttirish tezligi va doimiy faollik ko'rsatkichlari tahlil qilinmoqda.

Platformaning muhim jihatlaridan biri — foydalanuvchi shaxsiyatini hurmat qilish, noto'g'ri xatti-harakatlarni cheklovchi funksiyalarning mavjudligidir. Shuningdek, foydalanuvchi statistikalari asosida ularning muloqotdagi ijtimoiy holati va shaxsiy xarakteri haqida taxminiy tahlil qilish mumkin.

Xulosa: "Friends Chat" web-sayti orqali o'zbekistonlik yoshlarning muloqotga bo'lgan qiziqishi va faolligi tahlil qilinar ekan, raqamli ijtimoiy platformalarning ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni yuqori ekanligi ayon bo'lmoqda. Bunday loyihalar orqali foydalanuvchilar nafaqat muloqot qilishadi, balki axborot almashish, o'zini ifoda etish va jamiyatga integratsiyalashish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ushbu tajriba, mahalliy texnologik yechimlarning rivojlanishi uchun muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinov Sh., "Raqamli kommunikatsiyalar asoslari", Toshkent, 2022.
2. Jalilova G., "Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar", Urganch, 2023.
3. <https://buzzbanter.infinityfreeapp.com>
4. Turdiyev R. "Mahalliy IT platformalarning rivoji", Ma'lumotnoma jurnali, 2024.